



SCIENCE BOX

FRAZEOLOGIYANING FAN SIFATIDA RIVOJLANISHI

Ilxomova Shahribonu Ilhom qizi

Samarqand Davlat chet tillar instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada frazeologiya bo'limining mustaqil fan bo'lib shakllanishi ekanligi haqida so'z yuritilgan. Tilshunoslikda o'zining alohida o'rni va salmog'iga ega soha - frazeologiya sohasi ham yangi bosqichga ko'tarildi. Frazeologik birliklar til egasi hisoblangan xalqning ma'naviy madaniyati, urf-odati, kasbi, yashash joy va tarkibi, intilishi, voqelikka munosobati bilan chambarchas bog'liqidir.

Kalit So'zlar: frazeologik birliklar, obrazlilik, emotsional-ekspressivlik, ma'naviyat, madaniyat, axloqiy e'tiqod, tilshunoslik, ibora.

Ma'lumki, til fanining iboralarni o'rganadigan bo'limi frazeologiya deb ataladi. Iboralar lingvistik terminologiya tili bilan aytsak, frazeologizmlardir. Frazeologizm qadimgi grek tilidan olingan bo'lib, frasis-ibora, logos-tushuncha, ta'lilot demakdir. Frazeologizmni tilning leksik-semantik va sintaktik sathlaridan farq qiluvchi alohida sathga xos birlik deyish frazeologik normani ham adabiy tilning boshqa normalari qatorida hisobga olishni talab etadi. Shuning uchun ham izohli lug'atlarda frazeologizmlarni ham qayd etish butun dunyo tilshunosligida tan olingan amaliyotdir. O'zbek tilining frazeologizmlari ham besh jildlik "O'zbek tilining izohli lug'ati" da (2006-2008) va bir jildlik "O'zbekcha-ruscha lug'at" da (1988) birmuncha to'laroq aks etgan bo'lsa-da, bu lug'atlarda ham o'zbek tilidagi barcha iboralar qamrab olingan, deb bo'lmaydi.

Frazeologizmlarning o'rganilish tarixi haqida gapirilganda, "frazeologiya" atamasi "faza" so'zidan olingan bo'lsa-da, turkiyshunoslikda dastlab bu atama turli ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qilgan. XIX asrda yashagan turkiyshunos olim Mirza Kozimbek (1802-1870) o'sha davr an'analaridan kelib chiqib, rus tilida yozilgan boshqa tasviriy grammatikalarda bo'lgani singari o'z asarida "faza" so'zini jumla, gap ma'nosida qo'llagan. Ozarbayjon tilshunoslari B.Cho'ponzoda va F.Og'azoda "Turk tili grammatikasi" asarida til bo'limlari haqida fikr yuritib, "Semasiologiya", "Stilistika" atamalari bilan birga o'sha davrda tilshunoslikda keng qo'llanilishda bo'lgan "Idiomatizm" atamasini ishlatgan. Mualliflar bu asarda turk tilidagi idiomalarga oid "boshga solmoq", "boshga tushmoq", "ko'z ko'rmoq" kabi birliklarni misol sifatida keltiradilar. Umuman, frazeologiya turkiyshunoslikda nisbatan keyin paydo bo'lgan. Uni sistemali ravishda o'rganish faqat o'tgan asrning 40-50-yillariga kelib boshlandi.

Turkiy frazeologiyaning boshlovchilari turkiyshunos olimlar S.K.Kenesboyev va Sh.U.Rahmatullayevlar hisoblanishadi. Ularning o'tgan asrning 40-yillarining ikkinchi yarmi va 50-yillarda yuzaga kelgan tadqiqotlari turkiy tillar frazeologiyasining shakllanishi va taraqqiyotida katta rol o'ynaydi. Shundan keyingi 30-40 yil mobaynida turkiy tillardagi frazemalarni intensiv o'rganish bo'yicha muhim yutuqlar qo'lga kiritildi. Bu davrda S.N.Muratovning "Turkiy tillarda turg'un so'z birikmalari", Sh.U.Rahmatullayevning "O'zbek frazeologiyasining ayrim masalalari" (1966) kabi ishlari yaratildi. Rus tilshunosligida bo'lgani singari turkiyshunoslikda ham frazeologiya doirasini tor va keng ma'noda tushunish hamon davom etib kelmoqda.



SCIENCE BOX

Jumladan, akademik S.K.Kenesboevning fikricha, frazeologiya doirasiga keng ma'noda barcha turg'un birikmalar (maqollar, matallar, idiomatik birikmalar, turg'un ideomatik guruuhlar) kiradi. Ularni birlashtiruvchi umumiyl xususiyat turg'unlik va tilda tayyor holda mavjudligidir. Frazeologiya obyektini tor ma'noda tushunishning faol tarafdarlaridan biri, yirik turkiyshunos A.A.Yo'ldoshev edi. U frazeologiya obyekti tor doirada tushunilsa, "Frazeologiyaning o'rganish doirasi aniqroq namoyon bo'ladi, undan haqli ravishda bo'linmas leksik birliklar, jumladan maql, matal, hikmatli so'z va aforizmlar chiqib ketadi, chunki ular struktura jihatdan yaxlit holda qo'llanuvchi sintaktik birliklardir", [3] - degan fikrni olg'a suradi. O'zbek tilining frazeologik boyligini o'rganishga bag'ishlangan mukammal tadqiqotlarga egamiz. Adabiy til lug'at tarkibining taraqqiyoti va boyishi xalq shevalari bilan uzviy va chambarchas bo'g'liqidir. Adabiy til normalarini belgilashda xalq shevalarining leksik, fonetik va grammatik xususiyatlariga suyanadi va ma'lum o'ziga xos qonuniyatlar bilan rivojlanadi. Shunday ekan milliy tilning xalq shevalaridagi ko'chma ma'noli iboralarni o'rganish ham hozirgi o'zbek adabiy tili taraqqiyotining, uning boyib borish yo'llarini belgilovchi omillardan biri bo'ladi.

Dialektning har bir shevasida o'z turmush sharoiti, xo'jaligi va urf-odatidan kelib chiqqan o'ziga xos frazeologik iboralar borki, ular o'sha sheva yoki bir necha shevalarda uchrasa, boshqasida uchramasligi mumkin. Bulardan ba'zilari adabiy tilda o'z ma'no xususiyatini saqlagan holda uchrasa, boshqalari adabiy tilga o'zlashmaganligini ko'ramiz⁴. Masalan, "loy o'ynamoq" iborasi adabiy tilda uchramaydi. Shevada esa "bekor yurmoq", "ishlamasdan yurmoq", "anqayib turmoq" ma'nolarini ifodalaydi. Yoki "кўзи олма термок" iborasi anqaymoq, ko'rmay qolmoq ma'nosida uchrab, adabiy tilda bu ibora "og'zi ochilib turmoq" iborasi vazifasida keladi. Quva, Zarkent kabi shevalar uchun harakatli bo'lgan "hassa suyanmoq" iborasi aldanmoq, kutmoq ma'nosida kelib, Marg'ilon, Farg'ona, Oltiariq kabi shevalar hamda adabiy tildagi "devor suyanmoq" iborasi vazifasini o'taydi. Idiomatik iboralarning bunday turli variantlarda qo'llanishi ularning shevalarga chuqr singanligidan, ularning turli shevalarda turlicha shaklga kiritib qo'llanilganidan dalolat beradi.

Dialekt shevalarida ijobiy hodisalar, shaxsning ibratlari tomonlarini ochib beruvchi, hali adabiy tilda to'la o'rin topmagan frazeologik iboralar ham oz emas. Shulardan kelib chiqib, Farg'ona shevalarida mavjud bo'lgan frazeologizmlarning ma'nolarini quyidagicha ko'rsatish mumkin: Biror leksik ma'no bilan bir xilda o'zlashgan iboralar. Masalan, "кишлэфдь сел боссэ, унггэ нъмэ ғам" iborasi adabiy tildagi beg'am, yalqov, dangasa, beparvo ma'nolarini beruvchi "Dunyonni suv olsa, to'pig'iga chiqmaydi", "козгэ қым чочмәк" iborasi adabiy tildagi hiyla-nayrang ishlatmoqni bildiruvchi "Ko'zga chop solmoq" vazifasida keladi. Bu xil leksik ma'no bilan keluvchi iboralar tilda mavjud so'zlarning sinonimlari ko'pligini ko'rsatib, tilning leksik qatlamin boyituvchi kategoriya sifatida til qurilishida muhim o'rin tutadi. Shuningdek, bular obrazli iboralar sifatida o'zbek milliy adabiy tili taraqqiyotiga katta hissa qo'shamdi.

Xullas, dialekt shevalarda bunday iboralarning qo'llanish va ma'nolari hali adabiy tilda yo'q yoxud shu vazifada keladigan ibora o'rnini bosadigan boshqa shakldagi frazeologik birikma mavjuddir. O'tgan asrning 50-yillarigacha frazeologiya hali o'zbek tilshunosligi tarkibida mustaqil soha sifatida shakllanib yetmagan edi. Bu davrda frazeologiyaga doir dastlabki ma'lumotlar turg'un birikmalarga oid ilk nazariy fikrlar grammatica va stilistikaga, ayrim o'zbek shoirlari, yozuvchilarining badiiy mahorati tadqiqiga bag'ishlangan ishlarda ko'zga tashlanadi. Bunday ishlar A.G'ulomov, U.Tursunov, V.Abdullayev, H.Zarif, N.Mallayev singari mashhur tilshunos va adabiyotshunos olimlarning qalamiga mansubdir. Jumladan, A.Sa'diy, V.Abdullayev kabi adabiyotshunoslarning A.Navoiy asarlarida turg'un birikmalar, xalq iboralarining qo'llanilishiga oid fikrlari hozir ham o'z qimmatini saqlab kelmoqda.





SCIENCE BOX

O‘zbek frazeologiyasiga doir dastlabki ishlar o‘tgan asrning 50-yillarining boshida yuzaga keldi. Ular qatoriga Sh.Rahmatullayevning ishlarini kiritish mumkin. Masalan, Sh.Rahmatullayev idiomatik so‘zlar haqidagi fikrini rivojlantirib, til birliklarini etimologik jihatdan qo‘shma so‘zga teng idiomatik so‘zlar deb tahlil qilgan. Uning “O‘zbek frazeologiyasining ba’zi masalalar” nomli monografiyasining yana bir xarakterli tomoni shundaki, undan frazeologik omonimlarni frazeologik paronimlar va frazeologik paraformalardan farqlashga harakat qilinganligidir. Sh.Rahmatullayevning talqiniga ko‘ra o‘zaro frazeologik omonimlar va frazeologik paronimlar shuningdek frazeologik omoformalar va frazeologik paraformalar bir-biriga shu qadar o‘xshash bo‘ladiki, ulardan biri o‘rniga ikkinchisini xato ishlatib yuborish mumkin.

Agar iboralar o‘zaro tarkibidagi biror so‘z komponenti bilangina farq qilsa, ularni frazeologik paronimlar deb yuritish mumkin bo‘ladi. Masalan, “ko‘nglini ko‘tarmoq” - “ko‘ngli ko‘tarildi” va “ko‘nglini tog‘day ko‘tarmoq” - “ko‘ngli tog‘day ko‘tarildi”. Agar ba’zi iboralar biri ikkinchisida yo‘q garmmatik shakllanish sistemasiga ega bo‘lsa, frazeologik paraformalar haqida gapirish mumkin bo‘ladi. Masalan, “jon(i)kirdi” - “jonini kirgizmoq” va “jon kirdi” -“jon kirgizmoq” kabilar. G. Salomov o‘zbek tilshunosligi uchun g‘oyat dolzarb muammolardan biri frazemalar tarjimasi bilan maxsus shug‘ullangan olimdir. Olimning ta’kidlashicha, “Maqol-xalq aql idrokining mahsuli, uning hukmi, ko‘p asrlik tajribalari majmuyi, turmushdagi turli voqeа hodisalarga munosabatining ifodasidir”. Frazeologizmlarni o‘rganishda ularni o‘zbek va boshqa tillar frazeologizmlari bilan qiyosiy o‘rganish ham maqsadga muvofiq ko‘rinadi. N.Turopovaning “Yapon va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarni qiyosiy o‘rganish” nomli ilmiy maqolasida shunday fikrlar ilgari surilgan.

Frazeologik iboralar nutqning ta’sirchanligini, emotsiyal - ekspressivligini ta’minlovchi asosiy vosita sifatida nutqimiz ko‘rki hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan yapon tili frazeologizmlarining xususiyatlarini o‘rganib, ularni o‘zbek tilida ifodalash usullarini tahlil qilish maqsadga muvofiq. Har ikkala tildagi frazeologizmlarni qiyosiy o‘rganishda ularning mazmun jihatdan bir - biriga mos kelishi yoki qisman mos kelishi, o‘xshashligiga hamda bir tilda mavjud bo‘lgan frazeologizmlarning ikkinchi tilda na ekvivalentiga, na variantiga egaligiga e’tiborni qaratish lozim. N.Turopova frazeologizmlarni quyidagicha guruhlarga bo‘lib o‘rganishni tavsiya etadi.

1. Har ikki tilda mavjud bo‘lgan ekvivalent frazeologizmlar. Ular mazmun, shakl, ekspressiv-stilistik xususiyatlarni saqlagan bo‘lishi lozim.
2. Har ikki tilda o‘zaro o‘xshash bo‘lgan frazeologizmlar. Ular mazmun jihatdan o‘xshash stilistik xususiyatlarni o‘zida saqlagan, lekin obrazli asosi turlicha bo‘lgan frazeologik variantlardir.
3. Mazmuni kontekst orqali aniqlanadigan, milliy urf-odatni ifodalovchi frazeologizmlar. Frazeologik ekvivalent tanlashda tarjimon albatta kontekstda anglatgan mazmunga e’tibor berishi lozim, aks holda, tanlangan ekvivalent matnda ifodalangan mazmunga to‘g‘ri kelmay, fikriy g‘alizliklarni keltirib chiqaradi.

Olimlarning ta’kidlashlaricha, tarjima jarayonida bir tilga xos bo‘lgan grammatik vositalarni albatta ikkinchi tilda grammatik vositalar orqali berish shart emas. Bunday hollarda tarjimada vaziyat yo kontekstga alohida e’tibor qaratish lozim. Asosiysi, tarjimada so‘zlar kabi frazeologizmlarning anglatgan ma’nosini, emotsiyal - ekspressiv va stilistik xususiyatlarini saqlagan holda shakliy xususiyatlarini ham aks ettirish zarur. Maqol kundalik hayotda kishilarning bir-birlari bilan muomalada bo‘lishi jarayonida tug‘iladi. Idioma - shaklan bo‘laklarga ajralmaydigan, maxraji birikma tarkibidagi so‘zlarning to‘g‘ri va konkret ma’nosini bilan talqin qilinmaydigan, ko‘chma ma’no anglatuvchi barqaror so‘z birikmasidir. “Idioma” (yunoncha o‘ziga xos ifoda, ibora)-frazeologik chatishmadir.





SCIENCE BOX

Frazeologik chatishma - ma'nosи tarkibidagi so'zlarning ma'nosidan kelib chiqmaydigan frazeologik birliklar⁸. Masalan, "oyoqni qo'lga olmoq" (yugurmoq). O'tgan asrning 60-70-yillaridan boshlab o'zbek frazeologiyasini o'rganish ishi quyidagi ikki asosiy yo'nalishda rivojlandi: a) o'zbek tili frazeologik birliklarining ayrim struktural tiplari maxsus o'rganila boshladи; b) frazeologik birliklarning badiiy uslubiy xususuyatlari o'rganildi. Frazeologik birliklarning ibora - tasvir vositalari tizimida turgan o'rnni tadqiq qilish davom ettirildi. Bunday yo'nalishdagi tadqiqotlarda asosan yangi ilmiy soha - frazeologiyaning ko'pgina oziga xos muammolari o'rganildi va o'zbek adabiy tilining frazeologik tarkibi yangi frazeologik birliklar tahlili hisobiga boyib bordi.

Bundan keyingi davrda o'zbek frazeologiyasining yana bir boshqa yo'nalishda o'rganish sohasida ham salmoqli natijalarga erishildi, ya'ni XX asr o'zbek yozuvchilari, shoirlari asarlarining tili va uslubiga oid ko'pgina ishlarda, nomzodlik dissertatsiyalarda, ilmiy maqolalarda frazemaning uslubiy vazifalarini o'rganishga alohida ahamiyat berildi. Bu jihatdan Hamza (B.Turdialihev, Sh.Qozoqov), A.Qodiriy (H.Qahhorova, F.Nasriddinov), A.Qahhor (I.Qo'chqortoyev, O.Abdullayeva) H.Olimjon (S.Boboyeva), Zulfiya (S.Karimov) S.Ahmad (B.Yo'ldoshev) kabi so'z san'atkorlarining asarlarida qo'llanilgan frazemalar tahviliga oid ishlар diqqatga sazovordir. Masalan, I.Qo'chqortoyevning "Abdulla Qahhorning umumtil frazeologiyasi asosida yangi iboralar yaratishiga doir" maqolasida quyidagi fikrlar ilgari surilgan.

Mavjud frazeologik birliklar asosida yangi iboralar yaratish umumtilda, ayniqsa badiiy adabiyot tilida ko'p uchraydigan hodisadir. Yozuvchining frazeologik novatorligi, frazeologik ijodkorligi eng yorqin namoyon bo'ladigan soha ham mana shu umumtil frazeologiyasi asosida yangi iboralar yaratish sohasidir. A.Qahhor ba'zan asorizm va xalq iboralari darajasiga ko'tarilgan chuqur mazmunli, o'tkir kinoyali iboralar to'qiydi. Bu iboralarni ko'p hollarda xalq iboralardan ajratish qiyindir. Bu maqolada A.Qahhor tomonidan xalq frazeologiyasi zamiridagi obrazlar asosida ijod qilingan individual frazeologik neologizmlardan namunalar keltiriladi. Frazeologik birliklarning muhim belgilardan biri shundan iboratki, ular zamirida ma'lum obraz, konkret hodisa, harakat yoki predmet tasavvuri yotadi. Masalan, "quvonmoq" ma'nosini ifodalaydigan "og'zi qulog'iga yetdi" iborasida kulish, mamnun bo'lish orqasida og'izning qulqqacha yetishi tasavvuri, obraqi bor. Ibora zamiridagi mana shu obraz "quvonmoq" ma'nosini bildirish uchun xizmat qiladi. Ibora zamiridagi bunday obrazni boshqa nuqtayi nazardan izohlash, uni boshqacha talqin etish tilda yangi yaratilgan frazeologik neologizmda umumtil iborasiga mansub bo'lgan obraz yoki bu obrazning biror xususiyati saqlanadi.

A.Qahhor shu yo'l bilan yangi iboralar yaratishda umumtil frazeologiyalaridan ham, majoziy ma'noli maqollardan ham foydalanadi. A.Qahhor tomonidan yaratilgan yangi iboralarni sinchiklab o'rganish, ularning semantik-stilistik funksiyalarini tekshirish A.Qahhor uslubining o'ziga xos xususiyatlarini ochish uning o'zbek adabiy tili taraqqiyotiga qo'shgan hissasini aniqlashga yordam beradi. O'zbek tilshunosligida o'tgan asrning 70-80 yillaridan boshlab lingvistik model va modellashtirish usullaridan keng foydalanish boshlandi.

Frazeologik birliklar ham muayyan shakli, strukturaga ega bo'lishi bilan birga, ma'lum semantikaga ham ega. Shu bilan birga frazeologizmlar shakl va mazmun munosabatida ham bo'ladi. Frazeologiya mustaqil fan bo'lib shakllanishi va ajralib chiqqanidan buyon o'tgan nisbatan qisqa vaqt ichida frazeologik birliklar turli jihatlardan o'rganildi. Frazeolgik birliklarga morfologik nuqtayi nazaridan ham yondashiladi, ya'ni ularning u yoki bu frazeologik grammatic turkumlarga mansubligi belgilanadi. Frazeologik birliklarning shakli bilan ma'nosи orasidagi izomorfik (moslik,parallelilik) darajasini aniqlash maqsad qilib qo'yildi. Keyingi yillarda frazeologizmlar yuzasidan ko'plab ilmiy monografik asarlar, ilmiy maqolalar nashr etildi. Shunday ishlardan biri B.Yo'ldoshevning "Frazeologizmlarning adabiy til normasiga munosabatiga doir" nomli maqolasidir. Til jamiyatda eng



SCIENCE BOX

muhim aloqa vositasi bo‘lishi, o‘z vazifalarini oqilona bajarishi uchun, avvalo, normalashgan bo‘lishi kerak, chunki normativlik xususiyati milliy adabiy tilning markazi va eng muhim belgisidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Жамолдиновна, Б. М. (2020). ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ НАУЧНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ И ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЯЗЫКА И КУЛЬТУРЫ В СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВИСТИКЕ. Вестник Приамурского государственного университета им. Шолом-Алейхема, (3 (40)).
2. Bekiyeva, M. J. (2020). LINGVOKULTUROLOGIYANING TADQIQOT OBYEKTI, PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI. Интернаука, (18-3), 69- 70.
3. BEKIYEVA, M. (2020). Bekiyeva Malika O‘ZBEK TILINI KOGNITIV O’RGANISH OMILLARI, VAZIFALARI VA AHAMIYATI.
4. Bekiyeva, M. J. (2021) KONSEPTNING LINGVOKULTUROLOGIYADAGI BAZAVIY KATEGORIYALARDAN BIRI. АКТУАЛЬНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ. 3- 7 (71). С 233-241. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=45747276>
5. BEKIYEVA, M. (2020). INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING DUNYONING KOGNITIV TASVIRIDAGI O ‘RNI.
6. BEKIYEVA, M. (2020). FRAZEOLOGIZMLARNI O’RGANISHINTERAKTIV USULLARNING BIRI SIFATIDA.
7. BEKIYEVA, M. (2020). ПЕДАГОГИК МАХОРАТНИ ШАКЛАНТИРИШНИНГ МУХИМ ХУСУСИЯТЛАРИ.
8. Ибаев, А. (2021). Сравнительно-синтаксические примеры как объект изучения языкоznания. *Общество и инновации*, 2(8/S), 153-159.
9. Анвар, И. (2022, December). ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА ПАЙТ МУНОСАБАТЛИ МУРАККАБ СИНТАКТИК ҚУРИЛМАЛАР ДЕРИВАЦИЯСИ. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 175-178).
10. Анвар, И. (2022). СЎЗ БИРИКМАСИ ХУСУСИДА АЙРИМ ҚАЙДЛАР. ZAMONAVIY FAN, TA ’LIM VA ISHLAB CHIQARISH MUAMMOLARING INNOVATSION YECHIMLARI, 3, 34-37.

